

“METIL SPIRTI xavfi ” O‘LIM –YUZASIDAN O‘TKAZILGAN SUD-TIBBIY EKSPERTIZA TAXLILI

Sh.A.Salimov ; A.B.Botirov

Respublika sud-tibbiy ekspertiza ilmiy-amaliy markazi

Toshkent viloyati filiali Bekobod tumanlararo bo‘linmasi ekspertlari,

O‘zbekiston, Toshkent.

Annotatsiya: Mazkur maqolada filialning Bekobod tumanalararo bo‘linmasida o‘tkazilgan sud-tibbiy ekspertiza asosida "Metil spirti" natijasida yuzaga kelgan o‘lim holati yoritilgan. Holat tahlili orqali shunga o‘xshash vaziyatlarda sud-tibbiy ekspertlar tomonidan e‘tibor berilishi zarur bo‘lgan klinik-patologik va ekspertiza mezonlari muhokama qilingan.

Kalit so‘zlar: Sud, ekspertiza, meranol, zaharlanish, farmakologik, gistologik, distrofik.

Mavzuning dolzarbligi: Metil spirti (Metanol, CH_3OH) — bu rangsiz, achchiq hidli, tez yonuvchi suyuqlik. Xususiyatlari: Kimyoviy formulasi: CH_3OH . Qaynash harorati: 64,7 °C. Suv bilan har qanday nisbatda aralashadi. Metil spirti ichilgandan so‘ng: 1. 3–24 soat ichida belgilari seziladi: bosh og‘rig‘i, bosh aylanishi; ko‘ngil aynishi, qayt qilish; umumiy zaiflik. 2. Ko‘zlarga ta’siri: ko‘rishning xiralashishi; "qorong‘ilik tushgandek" bo‘lishi; vaqtinchalik yoki doimiy ko‘rlik. 3. Og‘ir holatda: hushdan ketish; nafas va yurak to‘xtashi; o‘lim. O‘limga olib keluvchi dozalar 10–15 ml ko‘r bo‘lishi mumkin. 30 ml va undan ko‘p ko‘pincha o‘limga olib keladi. Xavflilik darajasi: Atigi 10 ml metanol ichish ko‘rish qobiliyatini butunlay yo‘qotishi mumkin. 30 ml dan ortiq qabul qilinsa ko‘pincha o‘limga olib keladi. Hatto teri yoki nafas orqali ham zaharlanishi mumkin. Nima uchun xavfli? Metanol organizmda parchalanganda formaldegid va mravya kislota hosil qiladi. Ular asab tizimi, ko‘z nervlari va yurak-qon tomir tizimini shikastlaydi. Zaharlanish belgilari: Bosh og‘rishi, bosh aylanishi. Ko‘ngil aynishi, qusish. Ko‘z oldi xiralashishi, “tuman” ko‘rinishi. Nafas olish qiyinlashishi. Og‘ir hollarda koma va o‘lim. Shuning uchun metil spirti hech qachon ichish yoki ovqat/ichimlikda ishlatish uchun mo‘ljallanmagan. Faqat texnik maqsadlarda (yoqilg‘i, erituvchi, sanoat ehtiyojlari) qo‘llanadi.

Mazkur maqolada ushbu preparatning farmakologik xususiyatlari, haddan tashqari kŕn dozada qabul qilinishi (peredozirovkasi) oqibatida yuzaga kelgan klinik belgilari, sud-tibbiy ekspertiza natijalari va patomorfologik o‘zgarishlar atroficha tahlil qilingan.

Tadqiqot maqsadi: Kuchli zaharli modda hisoblanadi. Uni bilib bilmasdan ichish oqibatida yuzaga kelgan o‘lim holatini sud-tibbiy va klinik-asosli jihatdan

yoritish, shuningdek, ekspertizalarda shunday holatlarda qanday yondoshuvlar talab etilishini ko'rsatish.

Tadqiqot materiallari va uslublari: Tadqiqot obyekti sifatida 2025 yil iyul oyida filialning Bekobod tumanlararo bo'linmasida o'tkazilgan sud-tibbiy va sud-gistologik, kimyoviy tekshiruvlar xulosalari, tibbiy xujjat va katamnez ma'lumotlari, voqea joyini ko'zdan kechirish bayonnomasi va klinik kuzatuv natijalari o'rganildi.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi: 2025 yil 30 iyul kuni Bekobod shahar Sement zavodida ishlovchi 28.03.1974 y.t. Mamadjonov Dilmurod Tursunboevichda biologik o'lim holatida qayd etilgan.

Marhum D.T.Mamadjonovni kasalxonada bosh miya MSKT xulosasida; miya oq moddasini zichligini kamayishi, toksik ensefalopatiya? Meningoensefalit? tashxisi qo'yilgan.

Murda sud-tibbiy ekspertizasi vaqtida yurakdagi epikard yuzasida ko'p sonli qon quyilishlar, jigarda, ichki a'zolarida distrofik o'zgarishlar, o'pkada o'choqli qon quyilishlar, bosh miyada shish va boshqa patomorfologik o'zgarishlar aniqlangan. Sud-gistologik xulosaga ko'ra, tanadagi mikroskopik o'zgarishlar kuchli intoksikatsiya va gemodinamik buzilishlarga mos keladi.

Sud-kimyoviy tekshiruv natijalari ichki a'zolar, qonda 0,17% (nol butun yuzdan o'n yetti promille) metil spirti, 0,36% (nol butun yuzdan o'ttiz olti promille) etil spirti aniqlanmaganligini ko'rsatgan.

Xulosa: Metil spirti kuchli zaharli modda hisoblanadi, uni peredozirovkasi bilan bog'liq suitsidal holatlarni sud-tibbiy ekspertiza yo'li bilan aniqlashda muhim qiyinchiliklardan biri-organizmdagi farmakokinetik xususiyatlari (so'rilish (absorbsiya) va taqqoslanishi (distrubsiya), metobloizmi, chiqarilishi (ekskresiya) hisoblanadi. Bu esa kimyoviy tahlillarda doimo aniq natija olinmasligiga olib kelishi mumkin. Shu sababli:

- Voqea joyini ko'zdan kechirish,
- Katamnez ma'lumotlarini to'liq va to'g'ri yig'ish,
- Klinik belgilarni hujjatlashtirish,
- Patomorfologik o'zgarishlarni chuqur tahlil qilish ekspert xulosasini to'g'ri berishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Sud-tibbiy ekspertiza vaqtida suitsidal holatlarda kuchli zaxarli vositalaridan foydalanilganligini aniqlash o'ziga hos qiyinchiliklarni keltiradi: bunday holatlarda zaxarli moddalar inson organizmida absorbsiya va distrubsiya (so'rilish va taqqoslanishi) jarayonlari turlicha bo'lganligi sababli, sud-kimyoviy tekshiruv davomida doim ham aniqlanmasligi mumkin. Shunda, albatta, o'lim yuz bergan joyni ko'zdan kechirish, katamnez ma'lumotlarini to'liq yig'ish hamda murdada aniqlangan patomorfologik o'zgarishlarni to'g'ri ta'riflash o'ta muhim bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullaxo‘jayeva M.S. Patologik anatomiya //Darslik. - Toshkent. “Tafakkur bo‘stoni” nashriyoti, 2012. II qism, 111-118 b.
2. G‘iyosov Z.A. Sud tibbiyoti //Tibbiyot oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun
3. Iskandarov A.I., Qo‘ldoshev D.R. Sud tibbiyoti. //Tibbiyot oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik. - Toshkent, “MERIYUS” nashriyoti, 2009.